

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining**  
**2024-yil yakuni bo‘yicha Monopoliyaga qarshi komplaens faoliyati yuzasidan**  
**HISOBOTI**

1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilgan va 2023-yil 22-dekabr kuni 01-01/8-135-son raqqm bilan tasdiqlangan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas‘ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofazi qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 380-son buyrug‘i bilan ichki idoraviy hujjatlar yangilandi. Unda Monopoliyaga qarshi komplaens xodimi bilan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarni kelishish belgilangan.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining rasmiy veb-saytida aloqa kanallari yaratilgan bo‘lib, bular: “@ECOanticor_bot” telegram boti, Sall-markaz (712071107 yoki 1157, rasmiy saytdagi sahifa “ <a href="http://www.eco.gov.uz">www.eco.gov.uz</a> ”, elektron pochta manzili “ <a href="mailto:www.eco.gov.uz">www.eco.gov.uz</a> ”, va Feysbukdagi sahifasi “ <a href="http://Facebook.com/ecogovuz">http://Facebook.com/ecogovuz</a> ”
4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	Vazirlikda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlarining oldini olish bo‘yicha belgilangan tartibda choralar ko‘rilgan.
5	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziring 2024-yil 27-noyabrdagi 455-son buyrug‘i asosida davlat xaridlari jarayonida qonunbuzilish holatlari olidini olish va chek qo‘yish maqsadida o‘rganishlar o‘tkazilmoqda. Aniqlangan holatlar va ko‘rilgan choralar yuzasidan qo‘shimcha axborot berilishi ta‘minlanadi.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni havflar tasnifi asosida darajalarga bo‘linganligi.	Vazirlik va tizim tashkilotlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi asosan davlat xaridarlari jarayonida bo‘lishi mumkinligini inobatga olgan holda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan xarid jarayonlari to‘liq nazoratga olingan.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida

	hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	ishlab chiqilayotgan barcha normativ-huquqiy va ichki hujjatlarning loyihalari Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi Monopoliyaga qarshi komplaens xodimi tomonidan o'rganilgan. Shu kunga qadar ishlab chiqilayotgan loyihalarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi holati aniqlanmagan.
8	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida ekologiya sohasiga oid o'zgarishlar mavjud emas.
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatalari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	Vazirlik markaziy apparat, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalari xodimlari muntazam ravishda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirish yuzasidan o'quv-seminarlar tashkillashtirib kelinmoqda. Hujjatlar va foto suratlar ilova qilinadi. O'tkazilgan o'quv-seminarlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.	Vazirlik markaziy apparat, tizim tashkilotlari va hududiy boshqarmalari xodimlari raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablaridan qay darajada habardorligi yuzasidan test sinovlari o'tkazilgan va unda 1200 nafar xodim ishtirok etgan. Bayyonomalar ilova qilinadi.
11	Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Vazirlik va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar qilinib kelinmoqda. <a href="https://www.Facebook.com/EKO-Sirdaryo">https://www.Facebook.com/EKO-Sirdaryo</a> . <a href="https://t.me/eko-Sirdaryo">https://t.me/eko-Sirdaryo</a> .

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi bosh mutaxassisi**



**H. Musurmanov**